



**G'IJDUVON TUMANI "MUZZAM AYA SARDORI" NOMLI FERMER XO'JALIGI
SUG'ORILADIGAN TUPROQLARNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI,
SHO'RLANISH DARAJALARI VA UNUMDORLIGINI OSHIRISH OMILLARI**

R. Yunusov

Q.X.F.N, dotsent, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

F. A. Ganieva

O'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

X. Qobilova

1-bosqich magistranti, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

M. Xo'jaeva

2-bosqich talabasi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya: Mazkur maqolada G'ijduvon tumani "Muazzam aya sardori" fermer xo'jaligini sug'oriladigan tuproqlarining morfologik xususiyatlari, sho'rlanish darajalari va unumdorligini oshirish omillari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: tuproq, iqlim, rel'ef, meliorativ holati, sho'r yuvish, sho'rlanish darajalari, unumdorligini oshirish.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining yuqori bosqichiga o'tgan va sug'oriladigan dehqonchilikda jadal texnologiyalar ishlab chiqarishga joriy qilinayotgan ayni paytda tuproqlardan samarali va unumli foydalanish masalalari dolzarb vazifaga aylanib kelmoqda. G'ijduvon tumani "Muazzam aya sardori" fermer xo'jaligi Buxoro viloyatining sharqiy qismida joylashgan. Mazkur tumanni ko'p hududlari esa sho'rxoklar hamda qumliklarni tashkil qiladi. Bu relief shakllari xo'jaliklarining tuproq paydo bo'lish omillari sifatida faol ishtirok etadi. Sizot suvlarning sathi va ularning joylarida rivojlanishi yuqori ko'rsatkichga egaligi qayd etildi. Sizot suvlari sathi 1-3 metr chuqurlikda joylashgan bo'lib, kuchli sho'rlangan tuproqlarning rivojlanishiga asosiy omil hisoblanadi.

G'ijduvon tumanning umumiy er maydoni tekislikda joylashganligi sababli sizot chuqurligi o'rtacha 1-3 metr bo'lib, bu qadimdan sug'oriladigan o'tloqi -allyuvial tuproqlarning rivojlanishiga va keng tarqalganligiga olib keladi.

Mazkur hududda sizot suvlari asosan 1,5-2,5 m chuqurlikda joylashgan. O'simliklarni amal davrida sizot suvlari sathi vegetatsiya davrida beriladigan suvlar miqdori ta'sirida katta oraliqda tebranadi va (1,0-1, 25m) chuqurlikda joylashadi. G'ijduvon tumani "Muazzam aya sardori" nomidagi fermer xo'jaligining paxta-g'alla ekilgan maydonlarning azot, fosfor, kaliy va gumus (chirindi) bilan ta'minlanganligi 1-jadvalga ma'lumotlar keltirilgan.



1-jadval. G'ijduvon tumani "Muazzam aya sardori" nomidagi fermer xo'jaligi paxta-g'alla ekilgan maydonlarning azot, fosfor, kaliy va gumus bilan ta'minlanganligi

№	Fermer xo'jaligi nomi	Kontur raqami	Ekin turi	Azotli			Fosforli			Kaliyli			Gumus	
				No ₃ -N mg/100	koefitsient	Ta'minlanganlik darajasi	Harakatchan	koefitsieni	Ta'minlanganlik darajasi	Almashinuvchan K ₂₀	koefitsieni	Ta'minlanganlik darajasi	Gumis % hisobida	Ta'minlanganlik darajasi
1	Muazzam Aya sardori	4019	Paxtag'alla	5,31	1,232415	Judayuqori	12	1,175	Judakam	161	0,972	Kam	1,26	O'rt a
2		4009	Paxtag'alla	0,62	1,4499	Judakam	19,5	1,049	kam	166	0,959	Kam	1,30	O'rt a
3		4011	Paxtag'alla	0,92	1,4499	Judakam	10,5	1,199	Judakam	169	0,952	Kam	0,99	O'rt a
4		4015	Paxtag'alla	3,29	1,30491	yuqori	12	1,175	Judakam	176	0,934	Kam	0,94	O'rt a
5		326	Paxtag'alla	2,17	1,4499	o'rt a	11	1,192	Judakam	149	1,002	Kam	0,76	Kam
6		4023	Paxtag'alla	1,86	1,4499	Kam	13	1,158	Judakam	188	0,903	Kam	1,07	O'rt a
7		3995	Paxtag'alla	3,39	1,30491	yuqori	12	1,175	Judakam	246	0,759	O'rta	1,64	yuqori
8		3992	Paxtag'alla	3,24	1,30491	yuqori	10,5	1,199	Judakam	188	0,903	Kam	1,72	yuqori



9	40 10	Paxta-g'alla	2,20	1,4499	o'rta	10	1,208	Judakam	19 7	0,881	Kam	1,60	yuqori
10	40 54	Paxta-g'alla	3,14	1,30491	yuqori	11	1,192	Judakam	23 6	0,784	O'rta	1,5	O'rta

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan shu ma'lum bo'ldiki, G'ijduvon tumani "Muazzam aya sardori" nomidagi fermer xo'jaligini tuproqdagi elementlarni dinamikasi bo'yicha olib borilgan tajribalarda g'o'za o'simligi vegetatsiyasining oxirida haydalma qatlamda 75,9mg/kg va haydalma qatlam ostidagi qatlamda 50 ,1mg/kg miqdorda N-NO₃ ning saqlanib qolganligi kuzatildi. Vegetatsiya davrining oxirida ham bu tuproqlar turp harakatlangan azot bilan o'ta yuqori darajada ta'minlangan edi.

G'o'za o'simligini shonalash davrida kelib N-NO₃ ning miqdori shu tuproqning haydalma qatlamida 81,3 va haydalma qatlami ostidagi qatlam 55.0 mg/kg gacha oshadi. SHuni alohida qayd etish lozimki, vegetatsiya davrining oxirida esa N-NO₃ ning miqdori qatlamlarga mos ravishda 45.7 va 39.2mg/kg gacha kamaydi. Lekin, bu miqdor ekishdan oldingiga nisbatan 3martaga yaqin ko'p edi. Keltirilgan ma'lumotlardan shu ma'lum bo'ldiki, bu tuproqlarda harakatchan azotning ko'payganligini ko'rish mumkinligi aniqlandi. Tuproq tarkibidagi gumus miqdori "Muazzam aya sardori" nomidagi fermer xo'jaligida o'rganilgan konturlarda gumus miqdori 0.76-1.72% ni tashkil qildi va bu ko'rsatkichlar paxta g'alla ekinlarni yaxshi o'sishiga sabab bo'ladi.

2-jadval. G'ijduvon tumani "Muazzam aya sardori" nomidagi fermer xo'jaligida paxta-g'alla ekin maydonida konturlar bo'yicha 1gektar maydonidan N, R, K bilan ta'minlanganligi darajasi ko'rsatilgan.

Paxta ekini			Paxta ekini			G'alla ekini			G'alla ekini		
1 gektar maydondan			1 gektar maydondan			1 gektar maydondan			1 gektar maydondan		
N, azotli	R, fosforli	K, kaliyli	N, azotli	R, fosforli	K, kaliyli	N, azotli	R, fosforli	K, kaliyli	N, azotli	R, fosforli	K, kaliyli
7,39	6,08	3,59	21,4	13,2	6,0	4,6	3,8	1,4	13,5	8,3	2,3
8,70	6,39	4,17	25,2	13,9	7,0	5,5	4,0	1,6	15,8	8,7	2,6
8,70	7,30	4,14	25,2	15,9	6,9	5,5	4,6	1,6	15,8	10,0	2,6
7,83	6,44	3,66	22,7	14,0	6,1	4,9	4,0	1,4	14,3	8,8	2,3
8,70	7,26	4,36	25,2	15,8	7,3	5,5	4,6	1,6	15,8	9,9	2,7
8,70	7,05	3,93	25,2	15,3	6,5	5,5	4,4	1,5	15,8	9,6	2,5
7,83	6,44	2,97	22,7	14,0	5,0	4,9	4,0	1,1	14,3	8,8	1,9
7,83	6,57	3,54	22,7	14,3	5,9	4,9	4,1	1,3	14,3	9,0	2,2
8,70	7,36	3,83	25,2	16,0	6,4	5,5	4,6	1,4	15,8	10,1	2,4
7,83	6,53	3,07	22,7	14,2	5,1	4,9	4,1	1,2	14,3	8,9	1,9

2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan shu ma'lum bo'ldiki, "Muazzam aya sardori" nomidagi fermer xo'jaligi tuproqlarida 1 gektar maydonda harakatchan azotning ko'payganligi miqdorini ko'rish mumkin (7,39-8,70%).



3-jadval. G'ijduvon tumani "Muazzam aya sardori" nomidagi fermer xo'jaligida azot, fosfor, kaliy va gumus bilan ta'minlanganlik darajasi (% hisobida ta'minlanganlik darajalari).

NO ₃ -N mg/100g		P ₂ O ₅ mg/kg		K ₂ O mg/kg		Gumus %	
0-1	Juda kam	0-15	Juda kam	0-100	Juda kam	0-0,40	Juda kam
1-2	Kam	15-30	Kam	100-200	Kam	0,40-0,80	Kam
2-3	O'rta	30-45	O'rta	200-300	O'rta	0,80-1,6	O'rta
3-4	YUqori	45-60	YUqori	300-400	YUqori	1,6-2	YUqori
>4	Juda yuqori	>60	Juda yuqori	>400	Juda yuqori	>2	Juda yuqori

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan shu ma'lum bo'ldiki, "Muazzam aya sardori" nomidagi fermer xo'jaligida talab etiladigan mikroelementlar bilan talab etiladigan darajada ta'minlangan. Paxta va g'alla o'simligini o'sishi va yuqori hosil berishga yuqori hosil olish uchun barcha talab etiladigan mikroelementlar tuproq tarkibida mavjud bo'lib, bu faktor g'o'za-g'alla o'simliklarini maqbul o'sishi, rivojlanishi va hosildorlikni o'sishiga sharoit yaratiladi.

Tuproq xossalari ichida uning singdirish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Singdirilgan kationlarning xarakteriga ko'ra, tuproqning fizikaviy, kimyoviy va biologik xossalari o'zgaradi va o'simliklarni o'sishiga sabab bo'ladi.

4-jadval. G'ijduvon tumani "Muazzam aya sardori" nomidagi fermer xo'jaligi tuprog'ining tahlil natijalari.

Kontur raqami	Kesmalar soni	Qatlam chuqurligi, sm	Gumus, %		Fosfor mg/kg		Kaliy, mg/kg		Azot mg/kg	
4015	1	0-30	1,41	O'rta	13,5	Juda kam	204,7	O'rta	0,84	Juda kam
	2	0-30	1,15	O'rta	11	Juda kam	192,6	Kam	0,33	Juda kam
	3	0-30	0,99	O'rta	10,5	Juda kam	207,1	O'rta	0,48	Juda kam
	4	0-30	1,74	YUqori	12	Juda kam	197,5	Kam	0,42	Juda kam
	5	0-30	1,11	O'rta	10	Juda kam	144,5	Kam	1,67	Juda kam
4009	1	0-30	0,99	O'rta	12	Juda kam	178,2	Kam	1,63	Juda kam
	2	0-30	1,34	O'rta	13	Juda kam	187,8	Kam	0,96	Juda kam
	3	0-30	1,3	O'rta	11	Juda kam	207,1	O'rta	0,56	Juda kam
	4	0-30	1,8	YUqori	10,5	Juda kam	202,3	O'rta	0,79	Juda kam
	5	0-30	1,45	O'rta	13	Juda kam	192,6	kam	0,47	Juda kam

4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, olingan tuproq namunalarini qilingan agrokimyoviy tahlillari shundan dalolat beradiki, "Muazzam aya sardori" nomidagi fermer xo'jaligi 4015 va 4009 raqamli konturlarida 0-30sm chuqurlikda gumus miqdori 0,99-1,74 % ni, fosfor – 10,0-13,5



mg, kaliy – 144,5 – 207,1 mg/kg, azot – 0,33-1,67 mg/100 ni tashkil qildi. Mazkur “Muazzam aya sardori” nomidagi fermer xo’jaligining o’tloqi allyuvial tuproqlari o’zini tarkibi gumus bilan kam fosfor miqdoriga ko’ra kam va o’rta ta’minlangan, almashinuvchi kaliy ko’rsatkichlariga ko’ra esa kam, ba’zan o’rtacha ta’minlangan tuproqlar guruhiga kirdi. Tuz miqdoriga va uning qatlamlariga tarqalishiga ko’ra sho’r tuproqlarga bo’linadi. Tuproqlarni me’yordan ortiqcha sho’rlanishi o’simliklar uchun, jumladan g’o’za, donli ekinlar va mevali bog’lardagi mavjud daraxtlarning rivojlanishiga ikki tomonlama zarar etkazadi. SHuning uchun alohida qayd etish lozimki, birinchi navbatda tuproq tarkibida tuzning ko’payishi tuproq eritmasining osmatik bosimini oshishiga sabab bo’ladi va ildizlarni suv shimish tezligi pasayadi, ikkinchidan esa tuproq tarkibida mavjud eruvchan tuzlarni miqdorini ortishiga keltiradi va qishloq xo’jalik ekinlarni maqbul o’sishi va rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi. Qishloq xo’jalik ekinlaridan mo’l va sifatli hosil olish uchun muhim omil bu rejalashtirilgan hosildorlikka mos ravishda mineral o’g’itlarni miqdorini erga kiritish va o’simliklarni biologik talabini qondirish hisoblanadi va bu agrotexnologik omillarni o’z vaqtida va sifatli talab etiladi.

Xulosa. G’ijduvon tumani “Muazzam aya sardori” fermer xo’jaligini sug’oriladigan tuproqlarni unumdorligini oshishi va saqlashda mavjud tuproqlarning fizikaviy xususiyatlarining yaxshilanishiga ahamiyati benihoyat kattadir va tuproqni maqbul zichligida g’o’za, bug’doy va mevali daraxtlarni mineralizatsiya uchun maqbul sharoit yaratishga sabab bo’ladi. Pirovard natijada bu fermer xo’jaligi sharoitida havo sharoiti yaxshilanib mavjud tuproqlarda foydali organizmlarni miqdorini oshishiga keltiradi, bu omillar yuqori hosil olish garovi hisoblanadi.

G’ijduvon tuman “Muazzam aya sardori” fermer xo’jaligini tuproq-iqlim sharoiti qishloq xo’jalik ekinlaridan, jumladan g’o’za, kuzgi bug’doy va mevali daraxtlarni agrotexnologik parvarishlashda mineral o’g’itlarni o’simliklarni talab darajasini to’liq qondirish uchun berilsa, yuqori va tan narxi arzon hosil olish imkoniyati paydo bo’ladi.

Shuningdek, 2021-2022 yillar davomida G’ijduvon tuman “Muazzam aya sardori” fermer xo’jaligida parvarishlash agrtexnologiyalarini yuqori saviyada o’tkazilishi qishloq xo’jaligi ekinlarini hosildorligini keskin oshishi va ishlab chiqariladigan mahsulotni tan narxi kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yunusov, R., Ganieva FA (2021). Studying the different formations of apple trees in intensive orchards. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 6(6).
2. Ganieva, F. (2021). ECONOMICAL INNOVATIVE BASIS FOR THE CARE OF INTENSIVE STUNTED APPLE VARIETIES. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ(buxdu.Uz),6(6).
https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/3375
3. Ганиева, Ф. А., & Юнусов, Р. (2021). Рост и развития вегетативно- размножаемых подвоев яблони в зависимости от плотности посадки. Столица Науки”. М.
4. Atayeva, Z., Yunusov, R., Nazarova, S., & Ganiyeva, F. (2020). INFLUENCE OF CULTIVAR COMBINATIONS AND SEEDLING THICKNESS ON THE FORMATION OF PHYTOMETRIC INDICATORS AND PRODUCTIVITY OF PEAR TREES IN INTENSIVE ORCHARDS. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 10(9).
5. Amrilloyevna, Ganiyeva Feruza, and Yunusov Rustam. "THE GROWTH, DEVELOPMENT AND YIELD OF APPLE TREES IN INTENSIVE FRUIT ORCHARDS ARE HARDWOOD CUTTING COMBINATIONS AND THEIR DEPENDENCE ON THE THICKNESS OF SEEDLINGS." NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO (2021): 9591-9595.



6. Ganieva, Feruza. "РОСТ И ПЛОДОНОШЕНИЕ ДЕРЕВЬЕВ ПЕРСИКА В ОРОШАЕМЫХ САДАХ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КОНСТРУКЦИИ КРОНЫ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.6 (2021).
7. Ganieva, Feruza. "ВЛИЯНИЕ ЗАСОЛЕНИЯ ПОЧВ НА ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ОРОШАЕМЫХ ЗЕМЕЛЬ И ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ, ПРОТЕКАЮЩИЕ В РАСТЕНИЯХ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.6 (2021).
8. Ganiyeva, Feruza. "КЕСИШ УСУЛИ ВА ДАРАЖАЛАРИНИНГ ОЛМА ДАРАХТИ БАҒ САТҲИГА ТАЪСИРИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.2 (2020).
9. Ganiyeva, Feruza. "БУХОРО ВОҲАСИ ШАРОИТИДА ОЛМА ДАРАХТЛАРНИ ЎСИШИ, РИВОЖЛАНИШИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИНИНГ КЕСИШ УСУЛЛАРИ ВА ДАРАЖАЛАРИГА БОҒЛИҚЛИГИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.2 (2020).
10. Ganiyeva, Feruza. "БУХОРО ВИЛОЯТИ ШАРОИТИДА ИНТЕНСИВ БОҒЛАРДА ПАКАНА МЕВАЛИ ДАРАХТЛАРНИ КАСАЛЛИК ВА ЗАРАРКУНАНДАЛАРДАН ҲИМОЯ ҚИЛИШ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.6 (2021).
11. THE EFFECT OF CUTTING (PRUNING) METHODS AND LEVELS IN INTENSIVE GARDENS ON THE FORMATION OF APPLE TREES. Yunusov, R., Ikramova M.L., Ganieva F.A., Shadiyeva S.S. ResearchJet journal of Analysis and Inventions. ISSN: 2776-0960 Volume 3, Issue 1 Jan., 2022. <https://researchjet.academiascience.org>.
12. Yunusov, Rustam. "Studying the different formations of apple trees in intensive orchards." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.6 (2021).
13. Yunusov, Rustam. "Influence of cultivar combinations and seedling thickness on the formation of phytometric indicators and productivity of pear trees in intensive orchards." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 10.9 (2020).
14. Yunusov, Rustam. "THE GROWTH, DEVELOPMENT AND YIELD OF APPLE TREES IN INTENSIVE FRUIT ORCHARDS ARE HARDWOOD CUTTING COMBINATIONS AND THEIR DEPENDENCE ON THE THICKNESS OF SEEDLINGS." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.6 (2021).
15. Yunusov, Rustam. "Economical innovative basis for the care of intensive stunted apple varieties." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.6 (2021).
16. Atayeva, Zamira, et al. "INFLUENCE OF CULTIVAR COMBINATIONS AND SEEDLING THICKNESS ON THE FORMATION OF PHYTOMETRIC INDICATORS AND PRODUCTIVITY OF PEAR TREES IN INTENSIVE ORCHARDS." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 10.9 (2020).
17. Yunusov, Rustam. "ВЛИЯНИЕ УНИВЕРСАЛЬНОДЕЙСТВУЮЩЕЙ КОМПОЗИЦИОННОЙ СУСПЕНЗИИ НА УРОЖАЙНОСТЬ И КАЧЕСТВО ЗЕРНА В УСЛОВИЯХ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 5.5 (2021).
18. Yunusov, Rustam. "int INTENSIV BOG'LARDA PAKANA NOKLARNI TEJAMKOR INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA PARVARISHLASH OMILLARI.: R. Yunusov, FA Ganieva, OO Orifov." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 7.7 (2021).



19. Ganieva, Feruza. "ПАКАНА НОК ДАРАХТЛАРИНИНГ ЎСИШИ, РИВОЖЛАНИШИ ВА ҲОСИЛДОРЛИГИНИНГ КЎПАЙИШИГА ВЕГЕТАТИВ ПАЙВАНДТАГ ҲАМДА ИНТЕНСИВ НАВЛАРНИНГ ТАЪСИРИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.2 (2020).
20. Yunusov, Rustam. "INTENSIV PAKANA NOK BOG'LARI TUPROG'INING FIZIKAVIY-KIMYOVIY HOSSALARI VA REJIMINING TASNIFI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 7.7 (2021).
21. THE EFFECT OF CUTTING (PRUNING) METHODS AND LEVELS IN INTENSIVE GARDENS ON THE FORMATION OF APPLE TREES. Yunusov, R., Ikramova M.L., Ganieva F.A., Shadiyeva S.S. ResearchJet journal of Analysis and Inventions. ISSN: 2776-0960 Volume 3, Issue 1 Jan., 2022. <https://researchjet.academiascience.org>.
22. Ganieva, Feruza. Yunusov Rustam. "БУХОРО ВИЛЮЯТИ БУХОРО ТУМАН БОФИКАЛОН МФЙ ҲУДУДИДАГИ МЧЖ "СИЁВУШАГРО" БОҒДОРЧИЛИК ФЕРМЕР ХЎЖАЛИГИ ТУПРОҚЛАРИНИНГ АГРОКИМЁВИЙ ХОССА-ХУСУСИЯТЛАРИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 8.8 (2021).
23. Yunusov, R., Ganieva, F. A., Artikova, M. I., & Atayeva, Z. A. (2022). THE DEPENDENCE OF THE GROWTH, DEVELOPMENT AND PRODUCTIVITY OF APPLE TREES ON THE FACTORS OF CARE ON LOW-SALINE SOILS OF THE BUKHARA REGION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(02), 773-781.
24. Yunusov, R., Ganieva, F. A., INTENSIV PAKANA NOK NAVLARINING O'SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSIL ELEMENTLARI SHAKLLANISHINING NAVPAYVANDTAGLAR KOMBINATSIYASI VA KO'CHAT QALINLIGIGA BOG'LIQLIGI. "RESEARCH AND EDUCATION" Scientific Research Center "INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING 2022/2".
25. Ganieva, Feruza. "ВЛИЯНИЕ ЗАСОЛЕНИЯ ПОЧВ НА ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ОРОШАЕМЫХ ЗЕМЕЛЬ И ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ, ПРОТЕКАЮЩИЕ В РАСТЕНИЯХ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.6 (2021).
26. Ganieva, Feruza. "Influence Of Cotton Cultivation Techniques In Bukhara Region On Reduction Of Damage To Plants By Turnip Moth." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.6 (2021).
27. Tukhtaev, Shonazar Hojievich, Feruza Amrilloevna Ganieva, and Khalida Sharofqizi Artikova. "Application of carbophos in the control of plant spiders in Bukhara region." *Asian Journal of Multidimensional Research* 10.10 (2021): 1282-1285.
28. Ganieva, Feruza. "Когон тумани саломов шаҳобиддин номидаги фермер хўжалиги қадимдан суғориладиган ўтлоқи тупроқларининг мелиоратив ҳолатини яхшилаш ва кузги бўғдой етиштириш омиллари." *Центр научных публикаций (buxdu. uz)* 8.8 (2021).